

ONA TILI DARSLARIDA “LOYIHA ISHI”LARINI BAJARISHNING AMALIY AHAMIYATI

Rahmonov Shahzod Alisher o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15727777>

Maktab ta'limining boshlang'ich bosqichi o'quvchilarning asosiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligi fanlari tilni o'rganish, muloqot madaniyatini shakllantirish va mustaqil fikrlashga o'rgatishda asosiy rol o'ynaydi. Bugungi kunda dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayon muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchining dunyoqarashi shakllanadi, asosiy bilim va ko'nikmalari tarkib topadi. Shu jumladan, ona tili va o'qish savodxonligi fanlari orqali o'quvchilar muloqotga kirishish, o'z fikrini bayon qilish, mustaqil o'qish va matn bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Bugungi zamonaviy pedagogika amaliyotida o'quvchilarni faollashtirish, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadida turli metodlar, xususan, loyiha faoliyati keng qo'llanilmoqda. Loyiha faoliyati bolalarni mustaqil izlanishga, ma'lumot to'plashga, ularni tahlil qilishga va o'z g'oyalarini amaliyotda ifodalashga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktab ta'limida loyiha usuli hozirgi kunda sinf-dars tizimiga muqobil sifatida qaralmoqda. Ammo bu borada katta tajribaga ega mamlakatlar mutaxassislari loyiha asosidagi ta'lim ushbu tizim va boshqa o'qitish usullarini almashtirmasligi kerakligi haqida ogohlantirmoqda.

Hozirgi kunda o'quvchilarga bilim berish, o'rgangan bilimlarini oshirish va hayotiga amaliy tatbiq etishda mustaqil va loyiha ishlari uyushtirilmoqda. O'quvchilar bilim darajasini hisobga olgan holda asta sekin yuqori sinf materiallari bosqichma bosqich boshlang'ich sinflarga olib kirilmoqda. Zamonaviy asrda texnik vositalar bilan darsni yanada qiziqarli qilib o'tish, grammatik ta'limiy o'yinlardan foydalanish va ta'limga joriy etish juda ommalashmoqda. Ta'lim jarayonida turli xildagi mantiqiy topshiriqlar va interfaol metodlardan foydalangan holda dars mashg'ulotlari uyushtirilmoqda.

Ona tili darslarida o'quvchilarga uzundan uzun grammatik qoidalarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ularda o'z tilida erkin muloqot qilishi uchun va sof o'zbek tilida so'zlashishi uchun, mustaqil fikrlashini, so'zdan lazzatlana olishini rivojlantirishimiz kerak. Ona tili fanidan kutilayotgan natija ham shu aslida. Biz o'quvchilarga ona tili fanini o'rgatishimiz boshqa fanlarni o'rganish uchun “kalit” vazifasi sanaladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida faqatgina bilim berish emas, balki o'quvchilarni mustaqil o'rganishga, fikrlashga va harakatga o'rgatish asosiy maqsadlardandir. Shu nuqtai nazardan, loyiha ishlari ta'limda muhim o'rin tutib, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu jarayonning

asoslarini qo'yish juda muhimdir. Loyiha ishlari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarda chuqur bilim olish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ta'lim jarayonida loyiha ishlariga alohida e'tibor qaratish muhim. Loyiha ishlari aynan shu maqsadlarga xizmat qiladigan pedagogik vositalardan biridir.

Loyiha uslubining mohiyati - o'z loyihalari orqali fikrlash va tashkilotchilikni rivojlantirish, "ma'lum bir bilimga ega bo'lishni talab qiladigan muayyan muammolarga talabalarning qiziqishini rag'batlantirish va ushbu muammolarni hal qilishni ta'minlaydigan loyiha faoliyati orqali, olingan bilimlarni amaliy qo'llash qobiliyatini, refleksiv rivojlantirish yoki fikrlash jarayonining maqsadini qo'yadi.

Refleksiv fikrlashning mohiyati - bu faktlarni abadiy izlash, ularni tahlil qilish, ularning ishonchliligi haqida mulohaza yuritish, yangi narsalarni o'rganish, shubhadan chiqish yo'lini topish uchun faktlarni mantiqiy qurish va asosli mulohazalarga asoslangan ishonchni shakllantirishdir. Shubhani hal qilish zarurati doimiy va yo'naltiruvchi omildir, fikrlar oqimi betartib ketadi.

Loyiha usuli har doim, birinchidan, qandaydir muammoni hal qilishni nazarda tutsa, ikkinchidan, natijaga erishishga qaratilgan.

Loyiha usuli - bu nafaqat aniq amaliy natija shaklida rasmiylashtirilgan ma'lum bir natijaga erishishni, balki ushbu natijaga erishish jarayonini tashkil qilishni ham ta'minlaydigan talabalarning uyushgan qidiruv va tadqiqot faoliyati. Zamonaviy pedagogikada loyiha usuli fanni tizimli o'qitish o'rniga emas, balki u bilan birga ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida qo'llaniladi.

Loyiha usuli-bu yoki boshqa yo'l bilan ishlab chiqilgan to'liq real, aniq amaliy natija bilan yakunlanishi kerak bo'lgan muammoni (texnologiyani) batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usulidir... Loyiha usuli "loyiha" tushunchasining mohiyatini tashkil etuvchi g'oyaga asoslanadi, uning pragmatik yo'naltirilganligi muammoni hal qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan yoki amalda qo'llanilishi mumkin bo'lgan boshqa natijadir haqiqiy amaliy faoliyat". "Muammoni hal qilish, bir tomondan, turli usullar va o'qitish vositalarining kombinatsiyasidan foydalanishni nazarda tutsa, boshqa tomondan, bilimlarni birlashtirish zarurati va fan, texnika, texnologiya va ijodiy sohalarning turli sohalari bilimlarini qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guzeev V.V. Ta'lim natijalarini va ta'lim texnologiyasini rejalashtirish. M.: Xalq ta'limi, 2000. – 198-bet
2. Qosimova K.Matchonov S.G'ulomova X.Yo'ldosheva Sh.Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi."Bayoz" Toshkent-2022.12-13-bet
3. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik I qism. Kuranov S. – Toshkent: 2023-y. -88 b.